

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-2>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

YAKUBJONOV Xasan Qaxramonovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi

magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10646898>

IRODAVIY SIFATLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHGA TA‘SIRINI O‘RGANISH PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada irodaviy sifatlar mazmuni va shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishida irodaviy sifatlar ta‘siri muammosining ilmiy-nazariy jihatlarini yoritilgan. Ilk yoshdagi o‘spirinlarda o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risidagi tasavvurlarni kengaytirish, mazkur jarayonda irodaviy sifatning ta‘siri muammosini tadqiq etish ularning individual xususiyatlari hamda imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etishning muhim omili ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: iroda, irodaviy sifatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, iroda kuchi, qat‘iyatlilik, sobitqadamlik, mustaqillik, dadillik, qaysarlik.

ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ НА САМОУПРАВЛЕНИЕ КАК ПРЕДМЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыто содержание волевых качеств и научно-теоретические аспекты проблемы влияния волевых качеств на самоуправление человека. Расширяя представления о самоконтроле у подростков раннего возраста, исследуя проблему влияния волевых качеств на этот процесс, связано с их индивидуальными особенностями и возможностями, что является рядом социально-психологических проблем. важный фактор в решении проблем.

Ключевые слова: воля, волевые качества, самообладание, сила воли, решительность, стойкость, независимость, смелость, упрямство.

STUDYING THE INFLUENCE OF VOCATIONAL QUALITIES ON SELF-MANAGEMENT AS A SUBJECT OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH

ANNOTATION

The article describes the content of volitional qualities and the scientific-theoretical aspects of the problem of the influence of volitional qualities on the self-management of a person. Expanding ideas about self-management in early-age adolescents, researching the problem of the influence of volitional qualities in this process is related to their individual characteristics and opportunities, which is a number of socio-psychological. It is based on the fact that it is an important factor in solving problems.

Key words: will, volitional qualities, self-control, willpower, determination, steadfastness, independence, courage, stubbornness.

Jahon ta'lim amaliyotida o'quvchilarning hissiy-irodaviy sohasini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liqlikda samarali psixologik mexanizmlar o'quv jarayoniga tatbiq etilmoqda. Yevropada shaxs qobiliyatlarini rivojlantirish, irodaviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ilk o'spirinlik davrida o'z-o'zini boshqarishga irodaviy sifatlarni ta'sirining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, ilk o'spirinlik yoshi davri va uning psixologik xususiyatlarini tadqiq etish, o'z-o'zini boshqarishga ta'sir etuvchi ijtimoiy – psixologik omillarni aniqlashtirish, o'quvchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining psixologik-pedagogik imkoniyatlari va metodlarini aniqlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molikdir. Bu esa, ilk o'spirinlik davrida o'z-o'zini boshqarishga irodaviy sifatlarni ta'sirining ilmiy-psixologik asoslarini o'rganish zaruriyatini izohlaydi.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida rivojlanish yo'lini tanlagan Yangi O'zbekistonda innovatsion fikrlaydigan, bo'layotgan voqea hodisalarga erkin munosabat bildiradigan, ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Milliy istiqlol sharofati bilan jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy yangilanishlar, birinchi navbatda yosh avlod ongiga ma'naviy-axloqiy an'analar, insonparvarlik va demokratiya qadriyatlarini singdirishga xizmat qilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ma'naviy boylik sifatida irodali insonlar borasida quyidagi fikrlarni qayd etadi: “Hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi, keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar mavjud. Shunday paytda ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi” [2, B.123].

Respublikamizda ta'lim maqsadiga ko'ra o'quvchi-yoshlarning yoshiga mos ravishda quyidagi tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar – Vatanni sevish, ardoqlash va unga sadoqatli bo'lish, ishbilarmonlik, kuch va irodalilik, sog'lom fikrlash, g'amxo'rlik, yaxshilik, oqibatlilik, burch va mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy ong, yangicha fikrlash, mehnat qilish, mehnatni qadrlash singari ijodiy sifatlarni shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan [1].

Demak, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Zero, iroda – shaxsning ongli harakatlarida, o'zini tuta bilishda ifodalanadigan, ayniqsa, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishida namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir.

Ilk yoshdagi o'spirinlarning o'z-o'zini boshqarishiga irodaviy sifatlarning ta'siri muammosi o'spirinlik yoshi bosqichidagi shaxs xususiyatlari hamda o'spirinlarda o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, bu esa bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etishning muhim omili hisoblanadi.

Shaxs shakllanishi va rivojlanishi, o'z-o'zini boshqarishga irodaning ta'siri muammosi respublikamiz hamda qator xorijlik olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Shaxsning o'z-o'zini boshqarishida irodaning o'rni, shaxsda irodaviy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish muammosi olib borilgan qator tadqiqotlar obyekti sifatida belgilangan (M.Brixin [3], A.I.Visotskiy [5], V.A.Ivannikov [6], Ye.P.Ilin [7], V.F.Mashenko [8], A.S.Puni [9], L.I.Ruvinskiy [12], I.V.Selivanov [13], Ye.K.Feshenko [14], M.V.Chumakov [15], M.Rodrigues [11], Lauvee Y., Mey-Dan M.[10], Davila J.Marriage [4]).

Biroq, olib borilgan mazkur tadqiqotlarda o'spirinlarda o'zini o'zi boshqarish va unga irodaviy sifatlarning ta'siri muammosi ancha tor doirada muhokama qilinadi. Tadqiqotchilar asosan kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining o'zini o'zi anglash, baholash va boshqarish jarayonini o'rganishga ko'proq urg'u berishadi.

Psixologiya fanida irodani tushunish ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmagani kabi irodaviy sifatlarning mazmunini tahlil qilish yuzasidan ham umumiylik, umumiy qarashlar majmuasi mavjud emas. Jumladan V.A.Krutetskiy irodaviy sifatlarni tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi [3].

P.M.Yakobson bo'lsa irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, o'zini uddalashga ajratadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlarni sirasiga A.I.Shcherbakov quyidagilarni kiritadi ya'ni sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, mehnatkashlik va tirishqoqlik, dadillik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

Psixolog V.K.Kalin yuqoridagilarga muvofiq ravishda irodaviy sifatlarni tasniflashga qaror qiladi. Uning nuqtai nazaricha, bazal irodaviy sifatlarni irodaviy jarayonlar asosida vujudga keladi ammo bunda uning intellektual va axloqiy jabhalari ishtirok etmaydi. U bazal sifatlarni aniqlash uchun ongning quyidagicha namoyon bo'lishini tanlaydi: faollik darajasini ortishi; zarur bo'lgan faollik darajasini quvvatlash; faollik darajasini pasayishi [5, B.12].

Ana shulardan kelib chiqqan holda tadqiqotchi quyidagi sifatlarni mulohaza uchun tavsiya qiladi ya'ni g'ayratlilik, chidamlilik, vazminlik. V.K.Kalin bazal tizimga kirmagan irodaviy sifatlarni ikkilamchi deb nomlaydi, chunki ularda bilimlar, ko'nikmalar, emotsiya va intellektning paydo bo'lishi mujassamlashadi. Muallif qat'iyatlilik va tirishqoqlikni ikkilamchi sifatlarni tarkibiga kiritadi.

Iroda kuchi-o'zini tuta bilishda, jasurlik, qat'iyat, matonat va chidamlilikda namoyon bo'ladi. O'zini tuta bilish-kishining oldiga qo'ygan maqsadlarning amalga oshirishga qarshilik qiladigan ichki holatini yengishda ko'rinadigan irodadir. O'zini tuta bilish og'riq hissini toliqish qo'rquv va g'azabni yengishda namoyon bo'ladi. O'zini tuta bilish ayni paytda keraksiz bo'lgan reflekslarga odatlarga yo'l qo'ymaslikdir.

Iroda tushunchasi psixologiyada bir qancha ta'riflarga ega. Bizning fikrimizcha, iroda- inson ichki va tashqi to'siqlarini yengishi bilan birga ongli qo'yilgan maqsadga erishish imkoniyatidir. Irodaviy xulq-atvor maqsadga yo'nalganlik, o'zini o'zi nazorat qilish, vaziyat tug'ilganda u yoki bu harakatdan bosilish, ya'ni o'z xulq-atvorini egallash hamdir. Irodaviy sifatlarni bu - irodaviy tartiblilikning xususiyati bo'lib, qiyinchilikni yengish bilan shartlashgan xarakterning aniq sharoitida namoyon bo'lishidir.

A.T.Punining fikricha, “Har bir insonning irodaviy sifatlari yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi, lekin turli shaxslarda hatto bir shaxsning boshqa xil faoliyat bilan shug‘ullanishi natijasida ham irodaviy sifatlarning tuzilishi o‘zgaradi. Shuning uchun irodaviy sifatlari o‘zaro bog‘lana oladigan, ta’sirlashadigan, harakatlantiruvchi, dinamik tizim sifatida ifodalanadi” [9, B.84].

Psixologiya fanida irodaviy sifatlarning quyidagi klassifikatsiyalari ajratib ko‘rsatiladi. F.N.Gonobolin irodaviy sifatlarni istaksiz harakatlar va psixik jarayonlarning qo‘zg‘aluvchanligi hamda tormozlanuvchanligi bilan bog‘liq holda 2 guruhga ajratadi [7, B.56]:

1-guruhga: qat’iylik, jasurlik, matonatlik va mustaqillikni;

2-guruhga: sabr, o‘zini o‘zi boshqarish, chidamlilik, intizomlilik hamda tashkiliylikni kiritadi.

F.N.Gonobolin shuni ta’kidlaydiki, “har doim ham irodaviy sifatlarni uning qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlariga qarab ajratish to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Inson ba’zi sifatlarni tormozlab, boshqalarini qo‘zg‘atishi mumkin. Intizomlilik va tashkiliylik shu jihatlari bilan ajralib turadi” [7].

V.I.Selivanov ham irodaviy sifatlarni ajratishda asosiy mezon qilib qo‘zg‘aluvchanlik yoki tormozlanuvchanlik dinamikligini belgilaydi. Shu bilan u irodaviy sifatlarni qo‘zg‘aluvchan, ya’ni faollashtiruvchi, hamda tormozlanuvchan, ya’ni so‘ndiruvchilarga bo‘ladi:

1-guruhga: tashabbuskorlik, qat’iylik, jasurlik, g‘ayratlilik va dadillikni;

2-guruhga: sabr-toqat, matonat kabi irodaviy sifatlarni kiritadi [13, B.142].

M.Rodrigues [11] va Y.Lauve[10]lar quyidagi irodaviy sifatlarni ajratib ko‘rsatadi:

1) energiya –dinamik kuch –jadallik - bu sifati maqsadga erishishning qiyinlik darajasi bilan aniqlanadi;

2) qobiliyat – nazorat –intizom, bu sifati irodaning boshqa psixik funktsiyalarni boshqarishi va nazorat qilishini tasdiqlab turadi;

3) diqqat –konsentratsiya –diqqatning jamlanganligi, bu sifati insonga ta’sir qiluvchi obyekt yoki masala qiziqarsiz bo‘lganida katta ahamiyatga ega;

4) qat’iylik – tezlik, qaror qabul qilishda namoyon bo‘ladi;

5) matonatlik – chidamlilik –sabr;

6) tashabbuskorlik – jasurlik;

7) tashkiliylik – integratsiya – sintez, bu yerda iroda biror –bir masalani yechishda tashkil etuvchi vazifasini bajaradi.

Shuni ta’kidlash joizki, aynan bir odamning o‘zida irodaviy sifatlari turlicha namoyon bo‘ladi: biri yaxshi, biri yomon. Shundan kelib chiqqan holda aytish kerakki, iroda turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Barcha uchun bir xil irodaning o‘zi yo‘q, bo‘lmasa, bir xil vaziyatga tushib qolgan turli insonlarda aynan bir xil irodaviy sifati namoyon bo‘lib, ularning natijasi ham bir xil bo‘lgan bo‘lar edi. Quyida bir qancha irodaviy sifatlari mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘z-o‘zini kuzatish bilan tavsiflanuvchi irodaviy sifatlari. P.A.Rudikning fikricha, dadillik qiyin va tasodifiy vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik, salbiy hislarni saqlab turgan holda aql bilan o‘zining harakatlarini boshqarish sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa ta’rifga ko‘ra, dadillik – bu shaxsning o‘zini o‘zi ustidan hukmronligidir. Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, dadillik o‘zida salbiy emotsiyalar va ularni bosim ostida ushlab turish bilan bog‘liq qator mustaqil irodaviy sifatlarni namoyon qiluvchi irodaviy tavsifnomalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Dadillik bilan ifodalanuvchi irodaviy sifatlarga vazminlik, keskinlik (jur’atlilik), jasurlik kiradi.

Sobitqadamlilik bilan tavsiflanuvchi irodaviy sifatlari o‘z-o‘zini boshqarishda alohida ahamiyat kasb etadi. Sobitqadamlilik – bu shaxsning maqsadga intilishga ongli yo‘nalganligidir. Bu sifatlarga chidamlilik, qaysarlik, qat’iyatlilik kabilar kiradi.

Chidamlilik – bu ma’lum vaqt maqsadga intiluvchanlik davomida salbiy omillarga uzoq vaqt fiziologik jihatdan asoslangan holda qarshilik ko‘rsatishdir.

Chidamlilik inson fiziologik harakterga ega bo‘lgan ichki qarama-qarshilikni boshidan kechirganida va uni his qila boshlaganida namoyon bo‘ladi. Bu aqliy va jismoniy ishda charchoq hissi orqali namoyon bo‘ladi. Ba’zi psixologlar shaxsdagi sub’ektiv hissiyotlarga shu qatori charchash hissiga ham shubha bilan qarashadi. Bundan farqli ravishda fiziologlar charchoq hissiga obyektiv holat deb qarab, u tushkunlik hissi bilan bir qatorda vujudga keladi. Organizmda charchoq hissining yuzaga kelishi fiziologik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

Fiziologik tadqiqotlarda chidamlilik tushkunlik holati bilan kurash vaqtida yuzaga kelgan. Inson faoliyatining samaradorligini avvalgi darajada ushlab turish uchun qo‘shimcha iroda kuchi lozimdir. Uning qancha vaqt davomida bu ishni amalga oshira olishi shaxsning chidamliligini anglatadi.

Qaysarlik – bu istalgan yoki zaruriy, shu bilan bir qatorda ishdagi muvaffaqiyatlar, qiyinchilik va omadsizliklar bilan kurashishda “shu yerda va hozir”ga erishishga intilishdir. U nima bo‘lishidan qat’iy nazar maqsadga erishishga intilish bilan bog‘liqdir. Masalan, o‘quvchi qiyin masalani yechayotgan bo‘lsa, birinchi urinishdayoq taslim bo‘lmasdan harakat qilishi kiradi. P.A.Rudikning aniqlashicha, qaysar odam omadsizlik oldida taslim bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, qaysarlik odam oqilona asoslarga ega bo‘lishiga qaramay harakat qilish illatidan ilgari oz o‘ylab qabul qilingan qarorlardan voz kechish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. Qaysarlik sharoitga tik qaramay o‘zgargan vaziyatga epatchilik bilan moslasha olmaganlikdir. Mana shunday hollarda odam irodasining sustligi namoyon bo‘ladi.

Qat’iyatlilik – bu shaxsning qiyinchilik va to‘siqlarga qaramasdan uzoqni ko‘zlagan maqsadi sari intilishida yuzaga keluvchi “iroda kuchi”ning uzoq vaqt tizimli ravishda namoyon bo‘lishidir. Sobitqadamlikning fiziologik mexanizmlari inson motivatsion sohasining barqaror ustanovkalarida vujudga keladi. Qat’iyatlilik hammadan ko‘ra, inson sobitqadamlilikini aks ettiradi. Qat’iyat o‘ylab qo‘yilgan qarorni muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlovchi g‘oyat muhim sifatdir. Qat’iylik odamdan uzoq vaqt davomida hech bir pasaymaydigan irodaviy zo‘r berish va kuch-quvvatni taqozo qiladi.

Qat’iyatlilikning namoyon bo‘lishi quyidagilarga bog‘liq:

- 1) insonning maqsadga erishishga bo‘lgan ishonch darajasi;
- 2) muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga;

3) qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi irodaviy ustanovkalarga. Shu bilan bir vaqtda qat’iyatlilik kam miqdorda nerv tizimining xususiyatlariga bog‘liqdir.

Mustaqillik irodaviy harakatlar motivlarida va shu bilan birgalikda qaror qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Mustaqillikning mohiyati shundan iboratki odam o‘zining ish-harakatlarining tevarak atrofdagilarning tayziqi, tasodifiy, taassurotlar bilan emas balki o‘z ishonch e’tiqodlarini bilimlari va tegishli vaziyatda qanday ish tutishi kerakligi haqida tasavvurlarga asoslanib belgilaydi. Mustaqillikning qarama-qarshi tomoni ta’sirlanuvchanlikdir. Bu shundan iboratki bunda odam o‘zgalarning ta’siriga tez beriladi hamda uning harakat motivlari o‘zida tarkib topgan xususiy qarashlar ishonch aqidalar asosida emas balki tashqaridan ko‘rsatilgan ta’sir natijasi sifatida paydo bo‘ladi.

Real hayotda insonning irodaviy – axloqiy sifatleri qadriyatlar ustanovkasi bilan mos tushuvchi bir qator irodaviy sifatlar orqali aniqlanadi. Shuning uchun irodaviy xatti-harakatlarni xarakterlash maqsadida irodaviy-axloqiy sifatlar tushunchasi qo‘llaniladi va ular quyidagilardir: mustaqillik, intizomlilik va tashkilotchilik, intiluvchanlik, qaxramonlik va bahodirlik, fidokorlik, printsiptlilik.

Demak, Irodaviy sifatlar – bu qiyinchiliklarni yengishda shakllanadigan xarakter bilan bog‘liq, aniq vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi va shaxs xususiyatlariga aylangan irodaviy boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ilk yoshdagi o‘spirinlarda o‘z-o‘zini boshqarishga irodaviy sifatlerining ta’sirini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq qilish ularning shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini, fe’l-atvorlarini shuningdek, oilaviy ahvolini o‘rganish o‘spirinlik davrida ijtimoiy vaziyatlarni idrok qilinishi to‘g‘risidagi mavjud tasavvurlarni kengaytiradi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM-1059 son Qarori. - T.: - 2019 yil 31 dekabr.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. – 123-b.
3. Брихин М. Воля и волевые качества // Психология личности и социалистическом обществе. – М.: 2001. – 340 с.
4. Davila J. Marriage // Encyclopedia of Stress In 3 vol. / Ed. By G. Fink. Vol. 2. San-Diego: Acad. Press, 2000.
5. Висоцкий А.И. Возрастная динамика волевой активности школьников и методы ее изучения: Автореф. докт. дис. Л: 2002. – 40 с.
6. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции М.: 1998. – 218 с.
7. Ильин Е.П. Психология воли. СПб: Питер, 2009. – 324 с.
8. Мащенко В.Ф. Психологические особенности морально – волевых качеств личности трудно воспитуемых подростков. автореф канд.психол. наук. Киев.: 1998. - 24 с.
9. Пуни А.Ц. Психологические основы волевой подготовки в спорте. – М.: 1999. – 176 с.
10. Lauvee Y., Mey-Dan M. Patterns of Change in Marital Reiations Among Parents of Children with Cancer // Heaith and Sc. Work. 2003. Vol. 28, N 4.
11. Rodrigues M. et al. Listening to Mothers: Qualitative Studies on Motherhood and Depression from Goa India // Soc. Sci. and Med. 2003. vol. 57.
12. Рувинский Л.И., Хохлов С.И. Как воспитать волю и характер. – М.: Просвещение, 1998. – 244 с.
13. Селиванов В.И. Воля и ее воспитание. – Рязань: 1999. – 263 с.
14. Фещенко Е.К. Возрастно-половые особенности самооценки волевых качеств. – СПб.: Питер, 1999. – 142 с.
15. Чумаков М.В. Выделение волевых черт личности на основы семантического сходства. - Ярославль: Изд. во РПО, 2003. – 162 с.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz